

ISHQ SIRRIN...

1. *Ishq sirrin hajr asiri notavonlardin so‘rung,
Aysh ila ishrat tariqin komronlardin so‘rung.*

2. *Bizga juz mehru vafo oyini bo‘lmaydur nasib,
Bevafolig‘ rasmini nomehribonlardin so‘rung.*

3. *Bizni davron mehnati ham ojiz etmish, ham qari,
Husn ila quvvatni ra’no navjuvonlardin so‘rung.*

4. *Bedil el diljo‘yluq yo dilshikanlik rasmini
Fahm qilmaslar, bu ishni dilsitonlardin so‘rung.*

5. *Nek nom el ishq aro badnomlig‘lar shevasin
Yaxshi bnlmaslar, ani bizdek yomonlardin so‘rung.*

6. *Fardliq zavqini so‘rmang shavkatu joh ahlidin,
Ul suubat lazzatin bexonumonlardin so‘rung.*

7. *Ajz tufrog‘ida ishq ahlig‘a o‘lgan hukmi bor,
Qatl hukmi aylamakni qahramonlardin so‘rung.*

8. *Bilmadi maqsudi ganjinining nishonin ahli rasm,
Gar so‘rarsiz, ani benomu nishonlardin so‘rung.*

9. *Chun Navoiy ishq sahrosida itti, do‘stlar,
Ani ul yondin yetishgan korvonlardin so‘rung.*

(“Favoyid ul-kibar”, 350-g‘azal)

Lug‘at:

*Tariq – yo‘l-yo‘riq, yo‘sin, odat
Juz – boshqa, o‘zga, bo‘lak
Oyin – odat, rasm-rusum
Navjuvon – yosh
Bedil – dilsiz, yuraksiz; holsiz, majolsiz;
maftun, oshiq
Diljo‘yluq – ko‘ngil ochish, xursand
qilish, mehribonlik ko‘rsatish
Dilshikanlik – ranjitish
Dilsiton – dilni oluvchi, dilni o‘ziga
maftun qiluvchi; mahbuba, ma’shuqa*

*Nek – yaxshi
Sheva – odat, ravish, yo‘sin
Fardliq – yolg‘izlik
Joh ahli – boylik, mansab ahli
Suubat – qiyinchilik, mashaqqat
Ajz – ojizlik, zaiflik, xastalik
Maqsud – maqsad
Ganj – xazina, boylik
Ahli rasm – qoidalalar asosida
yashaydigan kishilar
Itti – yo‘qoldi*

1. 1- va 2-baytlar haqida noto‘g‘ri ma’lumotni toping?
 - A) *Ikki baytda ham TAZOD san’ati mavjud.*
 - B) *Oshiq o‘zini vafoli va mehribon deyish bilan bir qatorda ayrimlarni bevafo deb ham ataydi.*
 - C) *Xursandchilik va ko‘ngilxushlik yo‘lidagilarni oshiq baxtli deb ataydi.*
 - D) *Har ikki baytda ISHTIQOQ san’ati qo‘llangan.*

2. G‘azalda qaysi o‘xshatish mavjud emas?
 - A) *Oshiq o‘zini ojiz va keksa insonga qiyoslaydi.*
 - B) *G‘azalda oshiq o‘zini yomon inson deya ta‘kidlaydi.*
 - C) *Ish yo‘lida yurganlar hech narsasiz qolganlar deb ta‘riflanadi.*
 - D) *Navoiy o‘zining ishqqa to‘la ko‘ksini ishq sahrosiga qiyoslaydi.*

3. Ushbu g‘azalda quyidagi qaysi badiiy san’at(lar) mavjud?
 - 1) *Tashxis (arab. — shaxslantirish) — jlonlantirish badiiy san’atining bir turi; turli narsalar, hayvonlar, qushlar, o‘simpliklar va boshqalarga insoniy xususiyatlarni ko‘chirish san’ati.*
 - 2) *Sifatlash — shaxs va narsalarning o‘ziga xos, o‘zida bor xususiyatini ta‘kidlab o‘tish san’ati.*
 - 3) *Kalomi jomi’ (ar. — jamlovchi, umumlashtiruvchi so‘z) — she’rda yoki baytda pand-nasihat, o‘git, axloq-odobga oid, zamona va zamondoshlardan shikoyat bilan bog‘liq fikrlarni keltirishga asoslangan she’riy san’at.*
 - 4) *Husni ta‘lil (ar. — chiroyli dalillash) — biror voqeani unga bevosita daxli*

- bo‘lmagan boshqa bir hodisa bilan izohlash san’ati.*
- A) 1,4 B) 2,3
 - C) 2,3,4 D) 1,2,3,4

 4. 7-bayt mazmuni to‘g‘ri izohlangan qatorni belgilang.
 - A) *Ojizlik tuprog‘ida ish ahli o‘lmaydi degan gap bor, ularga o‘lim chiqarayotganlarni qahramonlar deb so‘rang.*
 - B) *Bu ojizlik tuprog‘ida ishq ahlini o‘lgan degan afsona yuradi, bu voqeani qatl qilinmasin, deb yurgan qahramonlardan so‘rang.*
 - C) *Ojizlik tuprog‘ida ishq egalari uchun o‘lishlikning hukmi bor, buni, aslida, oshiqlarni qatl etishni qahramonlik deb yurganlardan so‘rang.*
 - D) *Bu o‘lim bor tuproqda ojizlik ishq ahli uchun bor, bunday holatni qatl qilinmay qolgan qahramonlardan so‘rang.*

 5. Maqta’ mazmuni to‘g‘ri izohlangan qatorni belgilang.
 - A) *Nima uchun Navoiy o‘zining qalb sahrosiga ketdi, ey do‘stlar. Uni endi shu sahrodagilardan so‘rab ko‘ringchi.*
 - B) *Ey do‘stlar, nima uchun Navoiy sahroda itdek sarson bo‘lib yuribdi? Buni shu yerdan o‘tgan karvonlardan so‘rab ko‘ring. (Ular buni biladi)*
 - C) *Nima uchundir Navoiy ishqning sahrosida itdek sarson bo‘lib yuribdi. (Biz buni bilolmadik). Menimcha, buni sahrodagi karvonlardan so‘rab ko‘rish lozim.*
 - D) *Nechundir Navoiy ishq sahrosida yo‘qoldi, ey do‘stlar, endi uni yo‘lda kelayotgan karvonlardan so‘rang.*